

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN EVRISTIK TOPSHIRIQLARNING PEDAGOGIK XARAKTERISTIKASI

*Qodirov G'ayrat O'rroqboevich,
O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi, dotsent*

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda evristik topshiriqlarning pedagogikxarakteristikasi, yo'nalishlari va ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, evristik topshiriqlardan foydalanishda kasbiy faoliyatning mahsuldar usullarini qo'llash, kasbiy bilimlarni kreativ o'zlashtirish, o'quv jarayonini loyihalash va taqdimot qilish, pedagogik faoliyatning yangi shakllarini qo'llash va uning mahsulorligiga erishish, o'z pedagogik faoliyatini refleksiyalash va bashorat qila olish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida ularagi bo'shlqlarni aniqlash va takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar taqdim etilgan.

Tayanch so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiyalar, kasbiy bilimlar, evristik topshiriqlar, evristik yondashuv, evristik topshiriqlar, evristik didaktik vositalar, pedagogik xarakteristika hamkorlik, muloqot.

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF HEURISTIC TASKS USED IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS

*Kadirov Gayrat Oroqboevich,
Independent researcher of the Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan, docent*

Abstract: this article provides information about the pedagogical characteristics, directions and possibilities of using heuristic tasks in the development of professional competencies of future teachers. Also, applying productive methods of professional activity in the use of heuristic tasks, creatively mastering professional knowledge, designing and presenting the educational process, using new forms of pedagogical activity and achieving its productivity, reflecting and predicting one's own pedagogical activity receiving, based on the analysis of pedagogical situations, specific recommendations for identifying gaps and improving them are presented.

Key words: future teacher, professional competencies, professional knowledge, heuristic tasks, heuristic approach, heuristic tasks, heuristic didactic tools, pedagogical characteristics, cooperation, communication.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭВРИСТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

*Кадыров Гайрат Орокбоевич,
Независимый научный сотрудник НИИ педагогических наук Узбекистана, доцент*

Аннотация: в данной статье представлена информация о педагогических особенностях, направлениях и возможностях использования эвристических задач в развитии профессиональных компетенций будущих педагогов. А также применение продуктивных методов профессиональной деятельности в использовании эвристических заданий, творческое владение профессиональными знаниями, проектирование и представление образовательного процесса, использование новых форм педагогической деятельности и достижение ее продуктивности, отражение и прогнозирование собственной педагогической деятельности, получение на основе анализа педагогических ситуаций, даются конкретные рекомендации по выявлению пробелов и их устранению.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональные компетенции, профессиональные знания, эвристические задачи, эвристический подход, эвристические задачи, эвристические дидактические средства, педагогические характеристики, сотрудничество, общение.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lilda echimini kutayotgan muammolardan biri bo'lajak o'qituvchilarni izlanish, mustaqil bilim olishdan yo'naltirishdan iborat. Mavjud o'quv modullari, pedagogik turkum fanlari bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklar turli tuman bo'lib, ular bo'lajak o'qituvchilarni izlanuvchanlik hamda mustaqil bilim olishga undovchi evristik topshiriqlar bilan etarlicha boyitilmagan. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ hamda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini

tizimli tarzda rivojlantirish natijasida ularni izlanuvchanlik hamda mustaqil bilim olishga undash mumkin. Bunda evristik topshiriqlar etakchi didaktik vosita bo‘la oladi. Chunki evristik xarakterdagи о‘quv materiallari va topshiriqlar talabalarning fikrlash jarayonlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar professor-o‘qituvchilar rahbarligida evristik topshriqlarni kreativ yondashgan holda echadilar. Bo‘lajak o‘qituvchilardan intellektual faoliyat talab qilinadigan evristik jarayonlarda professor-o‘qituvchilarning ko‘magi va qo‘llab- quvvatlashi zarur hisoblanadi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy komptenesiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarda evristik topshiriqlarga alohida o‘rin ajaratish talab qilinmoqda. O‘quv jarayoni hamda mustaqil bilim olish vaziyatlarda bo‘lajak o‘qituvchilar evristik xarakterdagи topshiriqlar ustida tizimli tarzda ishslashlari lozim. Chunki evristik topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, ijodkorlik, kreativ fikrlash, nostonart echimlarni izlab topish ko‘nikmalarini samarali shakllantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning izlanishga asoslangan kreativ faoliyatlarini didaktik vaziyatlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirishni talab qiladi. Shuning uchun ham talabalar mustaqil bilim olish jarayonida evristik topshiriqlar ustida faol ishslashlari lozim. Shaxsning evristik fikrlashini talab qiladigan topshiriqlarga ijodiy xarakterdagи pedagogik jarayonlarda muvaffaqiyatli echim topiladi. Buning uchun professor-o‘qituvchilar bir necha echimga ega bo‘lgan evristik topshiriqlarni tanlashlari va talabalarga muayyan izchillikda taqdim etishlari lozim. Shundagina talabalar mazkur topshiriqlarni echishning turli usullari ustida izlanadilar.

Auditoriyadan tashqari pedagogik jarayonlarda ham bo‘lajak o‘qituvchilarni evristik topshiriqlar ustida ishslashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda seminarlar, turli viktorinalar, tanlovlar, davra suhbatlari, to‘garak mashg‘ulotlari, mustaqil bilim olish vaziyatlari qulay imkoniyatlarga ega. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni ko‘proq evristik xarakterdagи nostonart topshiriqlar ustida yo‘naltirish maqsadga muvofiqlidir.

Quyida bo‘lajak o‘qituvchilarga taqdim qilinadigan evristik topshiriqlar ustida fikr yuritishga harakat qilamiz. Professor-o‘qituvchilar o‘quv jarayoni maqsadlaridan kelib chiqqan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ahamiyatga kelgan evristik topshiriqlarni tanlashlari va taqdim etishlari lozim. Mazkur topshiriqlar, birinchi navbatda, akmeologik va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib bo‘lajak o‘qituvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni hamkorlik pedagogikasiga oid bilmirlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar. Ushbu maqsadda ular oldiga quyidagi topshiriqlar qo‘yiladi:

O‘quvchilar bilan samarali hamkorlik o‘rnatish uchun o‘qituvchi nimalarga e’tibor qaratishi zarurligi ko‘rsatib bering.

Hamkorlik pedagogikasi qanday prinsiplarga asoslanadi?

Hamkorlik jarayonining asosiy belgilari nimalardan iboratligini tavsiflang.

Hamkorlik jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalarning nazariy jihatlarini asoslang.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan evristik xarakterdagи topshiriqlarni tanlashda muayyan prinsiplarga tayanish talab qilinadi.

bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan evristik topshiriqlarning ta’lim mazmuni va o‘quv jarayoni maqsadlariga muvofiqligini ta’minlanishi;

evristik topshiriqlar o‘zining mazmuni va xarakteriga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim darajalari kasbiy qiziqish va motivlariga mos kelishiga erishilishi;

evristik topshiriqlarni ijtimoiy tajriba va pedagogik nazariyalarga tayangan holda tanlanilishi;

evristik topshiriqlar talabalarning mustaqil izlanishi, kreativ va mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishi, madaniy pedagogik modellardan foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratishiga erishilishiga xizmat qilishi kabilar.

Mashg‘ulotlar davomida bo‘lajak o‘qituvchilarga fan dasutri mazmuni bilan bog‘liq holda evristik topshiriqlarni tizimli taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning evristik topshiriqlarni tahlil qilish va ular ustida ishslash imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning murakkablik darajasini oshirib borish talab qilinadi. Har bir darsda professor-o‘qituvchilar bilan talabalar bilan birgalikda evristik topshiriqlarni yo‘llari va usullarini tahlil qilish orqali ularning mohiyatini anglatishga erishishlari lozim. Evristik topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari pedagogik nuqtai nazarlari, dunyoqarashlarini boyitishga xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega. Taqdim etilgan evristik topshiriqlar ustida ishslash jarayonida professor-o‘qituvchilar ularni evristik faoliyat usullari bilan yaqindan tanishib borishlari muhim ahamiyatga ega. Evristik topshiriqlar ustida ishslash bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogika va o‘qitish metodikasi yo‘nalishidagi

yangi nazariy ma'lumotlarni mustaqil izlab topish imkonini beradi. Evristik topshiriqlarga nostandard echimlar topish natijasida bo'lajak o'qituvchilarining nazariy bilimlari boyidi kasbiy kompetensiyalarini tizimli tarzda shakllanadi. Bo'lajak o'qituvchilar evristik xarakterdagi mashg'ulotlarga alohida qiziqish bilan qatnashadilar hamda evristik topshiriqlar ustida ishlash jarayonida kreativ faoliyat tajribasini namoyon etadilar.

Dastlabki o'quv yilida bo'lajak o'qituvchilarda rang-barang mazmundagi evristik topshiriqlar taqdim etiladi. Talabalar topshiriqlarning mazmun-mohiyatini aniq anglab olganlaridan keyin professor-o'qituvchilar evristik topshiriqlarni individual yondashuv asosida tanlashga harakat qiladilar. Individual yondashuv asosida tanlangan evristik topshiriqlar ustida talabalar asosan ikkinchi, uchinchi o'quv yillarida ishlashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki ular bu davrda kreativ xarakterdagi pedagogik faoliyat tajribasini bosqichma-bosqich o'zlashtirib oladilar. Pedagogik bilimlari kengayib kasbiy dunyoqarashlari bosqichma-bosqich rivojlanib boradi.

Evristik topshiriqlar ustida tizimli tarzda ishlash natijasida bo'lajak o'qituvchilar kreativ xarakterdagi pedagogik faoliyat tajribasini o'zlashtiradilar. Natijada talabalarda o'quv-biluv faolligi shakllanib kasbiy kompetensiyalar muvaffaqiyatlari rivojlanadi. Bo'lajak o'qituvchilar muvaffaqiyatlari o'zlashtirgan o'quv axborotdan samarali foydalangan holda evristik topshiriqlar ustida ishlashga muvaffaq bo'ladilar. Kasbiy xarakterdagi evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy izlanishga, echimlarning turli variantlarini izlab topishga undaydi. Bunday vaziyatlarda ular topshiriqning bir necha echimini izlab topishga harakat qiladilar. Natijada tayanch hamda kasbiy kompetensiyalar takomillashadi.

Intellektual faollikni talab qiluvchi evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarning evristik izlanishini jadallashtirib, bilimlarni chuqur o'zlashtirishlari va amaliy faoliyatlarida qo'llashlariga sharoit yaratadi. Ushbu harakatlar dars va darsdan tashqari mustaqil bilim olish vaziyatlarda bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Dars jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning evristik topshiriqlar ustida ishlash motivlarining rivojlanganligi kuzatildi. Bu bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorat sirlarini egallashlari, o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash metodlarini o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qildi. Ular o'quv jarayonini loyihalash, mualliflik dasturini tuzishga harakat qiladilar. Bu jarayonda qo'shimcha axborotlardan foydalananishga muvaffaq bo'ladilar. Ularning evristik topshiriqlar ustida ishlash, kasbiy kompetensiyalarini amalda qo'llashga oid kasbiy harakatlari faollandashadi. Topshiriqlarni tarkibiy qismlarga ajratishga yo'anltirilgan bilish harakatlari jadallahadi. O'z fikrlari va qarashlarini aniq dalillar yordamida asoslashga erishadilar.

Evristik topshiriqlar ustida ishlash natijasida bo'lajak o'qituvchilar ko'proq izlanishga pedagogik xarakterdagi ilmiy axborotlarni toplashga ularni har tomonlama tahlil qilishga muvaffaq bo'ladilar. Ular ko'proq mustaqil bilim olish, ilmiy manbalar ustida ishlash, o'z shaxsiy tajribalarini boyitishga harakat qiladilar.

Foydalilanigan adabiyotlar.

Авалиани Г.В. Эвристические методы в распознавании образов. - Тбилиси, 1988. - 45 с.

Аверин В. А. Психическое развитие детей младшего школьного возраста: Учеб. пособие С.Пб.: Изд-во Михайлова В. А., 2000. - 64 с.

Батяева Т.А. Системно-целевой подход в применении эвристических приемов к обучению студентов решению нестандартных задач: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Казань, 2000. – 26 с.

Сафарова Р.Г. Computer-didactic support for the training of social sphere specialists at the university based on a cultural approach. International conference: Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them (PTLICISIWS-2022). 050009 Scopus, Web of Science indexed. <http://pubs.aip.org/aip/acp>

Сафарова Р.Г. Possibilities of Approaching the Educational Process From the Point of View of Cultural Sciences. Miasto Przyszlosci Kielce 2023. ISSN-L: 2544-980X. Impact Factor: 9.2 View of Possibilities of Approaching the Educational Process From the Point of View of Cultural Sciences (miastoprzyszlosci.com.pl)

Машарипова Н.Р. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. International scientific and practical conference "Innovative development in the global science"/ 2023, Boston, USA. P 95-97. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7111515>